

AXBOROT XATI

Sizga shuni ma'lum qilamizki, 2021-yil 10-may kuni Urganch davlat universitetining Jismoniy madaniyat fakultetida **“Jismoniy madaniyat sohasida ta’lim va o’qitish sifatini takomillashtirish”** mavzusida ilmiy-amaliy onlayn anjumani o’tkaziladi.

Anjumanning maqsadi: Mamlakatimiz oliygohlarida va jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat ko’rsatayotgan pedagog-xodimlar, yetakchi olimlar, yosh ilmiy xodimlar, magistr va talabalarining ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va ularni rivojlantirish istiqbollari borasida olib borayotgan ilmiy tadqiqotlarining eng so’ngi yutuqlari bilan tanishish va muhokama qilishdan iborat. Mazkur konferensiyaga Oliy ta’lim muassasasi professor-o’qituvchilari va doktrontlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistr va talabalar ilmiy maqolalari bilan ishtirok etishi mumkin.

Anjumanda quyidagi sho’balar bo’yicha ish olib boriladi: 1. Oliy ta’lim tizimida jismoniy madaniyat ta’limi va o’qitish sifatini takomillashtirishning zamonaviy innovatsion texnologiyalari; 2. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslari va sport mashg’ulotlarini ilmiy tashkil qilishning pedagogik asoslari; 3. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni jismoniy tarbiya ta’limi sifatini takomillashtirish masalalari; 4. Bolalar sportini rivojlantirish va yuqori sport natijalariga erishishning dolzarb muammolari.

Konferensiya uchun tayyorlanadigan materiallarga qo’yiladigan talablar: Materiallar 4 betgacha bo’lgan hajmda, 1,5 intervalda (chapdan 3 sm, yuqoridan 2 sm, quyidan 2 sm, o’ng tomondan 1,5 sm, qog’oz o’lchovi 210 x 297 mm) kompyuterning Microsoft Word dasturida, Times New Roman shriftida, 14 kegel kattaligida yoziladi. Mavzuning nomi katta harflar bilan qoraytirib, qog’ozning o’rtasiga avtomatik tarzda keltirib yoziladi, keyingi qatorga muallifning ismi-sharifi, lavozimi va ta’lim muassasasi nomi yoziladi. Maqolalarning elektron variantini 1 nusxada (sho’ba nomeri) (muallif familiyasi) (masalan 1-sho’ba S.Abdullayev) kabi nomlanib, tahrir qilingan holda **Telegram** ilovasi orqali +99891-571-27-77 telefon raqamiga 20.04.2021 yilgacha yuborishingiz so’raladi. Kechikkan yoki qayd qilingan talablarga rioya qilib yozilmagan maqolalar konferensiya dasturi va to’plamiga kiritilmaydi. Tezislar mazmuni, statistik ma’lumotlar ishonchliligi uchun mualliflar javob beradi. Barcha talablarga javob beradigan ilmiy maqolalar to’plamga kiritiladi va chop etiladi. Ko’rsatilgan muddatda taqdim etilmagan va ekspertizadan o’tmagan materiallar to’plamga

kiritilmaydi va muallifga qaytarilmaydi. To‘planning nashr xarajatlari uchun tezislarning har bir sahifasi uchun 15000 (o‘n besh ming) so‘m qilib belgilangan.

Manzili: Urganch shahar, X.Olimjon ko‘chasi 14-uy, Urganch davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti.

Murojat uchun tel: +99891-571-27-77 Salaev Toxir,

+99894-230-95-55 Jammatov Jasur